ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"EKSPERT HAUSE" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Adaxamov Rustamjon Alijon O‘g‘li
Sana: 27-10-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

263253 - SONLI

Obyekt nomi: O’ziga tegishli joyga qo‘shimcha 2 dona 5 qavatli 1 podezli 2 va 3 xonali xar biri 20 xonodonli ko’p qavatli turar joy binosi qurilishi	
Buyurtmachi:	"PAXTAOBOD 114-QURILISH" M.CH.J
Bosh loyihachi:	"QISHLOQQURILISHLOYIHA" DAVLAT MUASSASASI
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	"PAXTAOBOD 114-QURILISH" M.CH.J
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	097583

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Paxtaobod tumani qurilish va uy-joy komunal xojaligi bo’limining 2025 yil 15-iyul kungi № 197625537 -sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati qurilish Bosh boshqarmasining 2025 yil 24-iyulda kungi № 1703-1703232-233085 -sonli ART arxitektura rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 2025 yildagi tasdiqlangan loyiha oldi topshirig’i.

1.4. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2025yil 26-sentyabrdagi №215516539 -sonli xulosasi.

1.5.Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi xuzuridagi Arxitektura va shaxarsozlik kengashining 2025 yil 29-iyun kungi № 36-sonli yig‘ilish bayoni.

1.6. Andijon viloyati Ekologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish boshqarmasining 2025 yil 04-avgustdagi № 01-02/03-6102-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

1.7. Hududning 1:500 masshtabli topoharitasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1.Loyihaning tarkibiy qismlarining ro’yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to’liq loyixa-smeta hujjatlari.

2.2.Ruxsatnomalar va kelishuv hujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish xati kitob tarzida.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino

Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi	Xonadonlar soni
Ko'p xonadonli turar joy binosi	2 DONA 5 QAVATLI 1 PODEZLI 2 VA 3 XONALI XAR BIRI 20 XONODONLI	5	294.6	1997.4	5292.36	40
Jami:			**294.6**	**1997.4**	**5292.36**	**40**

3.1. Qurilish maydoni tavsiflari:

Iqlimiy tuman - II g.

Tashqi havoning hisobiy darajasi -15°C.

Yozgi havoning hisobiy darajasi +33°C.

Qordan yuzaga tushadigan yuk - 0.50 kPa.

Shamaolnining ta’sir kuchi - 0.38 kPa.

Zizilaviy qurilish hududi - 8 ball.

Muxandislik geologik qidiruv ishlari 2025 yilda “GEO VALLEY GOLD” MCHJ tomonidan bajarilgan.

3.2.Bosh Reja: Andijon viloyati, Paxtaobod tumani Qo‘qonqishloq MFY, 12-uy hududida "PAXTAOBOD 114-QURILISH" M.CH.J tomonidan “O’ziga tegishli joyga qo‘shimcha 2 dona 5 qavatli 1 podezli 2 va 3 xonali xar biri 20 xonodonli ko’p qavatli turar joy binosi qurilishi, Paxtaobod tumani qurilish va uy-joy komunal xojaligi bo’limining 2025 yil 15-iyul kungi № 197625537 -sonli ruxsatnomasiga asosan 7804.0 m2 yer maydoniga qurilish uchun ruxsat etilgan. Yer maydoni chegaralari quyidagicha: Shimol tomondan – noturar binolar bilan chegaralangan. Janub tomondan – axoli uylari bilan chegaralangan. Sharq tomondan - ichki yo’l bilan chegaralangan. G‘arb tomonlardan – axoli uylari bilan chegaralangan. Bosh rejada 2-dona 5-qavatli 20-xonodonlik turar joy binosi, bolalar maydoni, oqava shuv inshooti, kichik elektr shaxobchasi, chiqindi yig’ish qutisi, dam olish ayvoni va suv gidranti.

Maydon qoplamalari quyidagicha loyihalangan: Yo’laklar, burilib olish maydonlari quyma betonli bordyurli, 20 sm qalinlikdagi shag’al to’shamali asos ustiga 5 sm qalinlikdagi mayda toshli asfalt qoplamali qilib bajarilgan. H=5sm qalinlikdagi yuvilgan qum to’shama ustiga h=8sm qalinlikdagi beton plitkali (bruschatka) quyma betonli bordyurli qilib bajarilgan. Sug’orish tarmog’i tuproqli va yig’ma LI-1-BT temirbetonli ariqchalar ko’rinishida bajarilgan. Sug’orish tarmog’i yo’laklar bilan kesishgan joylarda 0.4 m o’lchovli asbotsement quvurlar yotqizish orqali amalga oshirilgan.

Ko’kalamzorlashtirish: Hududda jozibali va mikroklimat hosil qilish maqsadida ko’kalamzorlashtirish ishlari loyixada ko’zda tutilgan. Daraxtlar mavsumiy gullar va butalar, rang-barangligini va joylashuvini ularning ketma-ket o’sishini hisobga olgan xolda joylashtirigan.

3.3.“Energiya samaradorlik qismi” qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o’rnatish.

Loyiha-smeta hujjatlarida loyihalanayotgan bino inshootlarning hajmiga qarab elektr tejamkorligi bo’yicha quyosh panellari xisoblab ko’rsatgan. Quyosh panellarining quvvati 25-30 % ni tashkil etadi.

Tashqi devor yuzalari issiklikni saqlovchi materiallar PPJ T-50mm bilan loyihalashtirilgan. Lohida qavatlar orasida va tomda xam issiqlik saqlovchi materiallar bilan qoplash nazarda tutilgan.

3.3. Arxitekturaviy va konstruktiv yechimlari: Andijon viloyati, Paxtaobod tumani Qo‘qonqishloq MFY, 12-uy hududida "PAXTAOBOD 114-QURILISH" M.CH.J tomonidan “O’ziga tegishli joyga qo‘shimcha 2 dona 5 qavatli 1 podezli 2 va 3 xonali xar biri 20 xonodonli ko’p qavatli turar joy binosi qurilishi qurish ishchi loyihasi buyurtmachi tomonodan tasdiqlangan loyihalash uchun topshiriq, 2025 yil 24-iyulda kungi № 1703-1703232-233085-sonli me’moriy rejalashtirish topshirig’i va buyurtmachi xatiga asosan ShNK 2.08.01-05 “Turajoy binolari” talablari asosida ishlab chiqilgan.

“2 dona 5 qavatli turar joy binosi” yerto’lali, to’g’ri to’rtburchak shaklida, quyma yaxlit temirbeton konstruktsiyali umumiy o’lchami 17.8x15.76 m, yerto’la texnik qavat balandligi h=1.7 m, 1-5-qavatgacha balandligi h=2.7 m ni tashkil qiladi.

Binoning yerto’la texnik qavat, nasos xona, 1-5-qavatilari “turar-joy” binosi mo’lljallangan bo’lib umumiy maydoni 1997,4 m2 dan iborat. Binoning 1- qavatidan beshinchi qavatgacha ikki va uch xonali umumiy maydoni 51.1 m2, 54.0 m2 va 43.54 m2 ga teng 20x2=40 ta xonadon joylashgan.

Bosh rejaga asosan: 2-dona 5 qavatli turar-joy 40 xonadonli turar-joy joylashgan.

Xonadonlarda yerto’la qismi yerto’la texnik qavat, nasos xona, kirish, xojatxona, yuvinish-cho’milish xonasi, bolalar xonasi, oshxona, umumiy xona va uxlash xonasi va mexmonxona joylashgan. Ichki pardoz ishlari - devorlar yuzasi sement-qum suvoq, gruntovka, tekislovchi shpatlyovka va ustidan suvli dispersion bo’yoq va devorlarning quyi qismlari moyli bo’yoq bilan bo’yoqlash hisobga olingan. Shift yuzalari – pardozlovchi shpaklyovka va suvli dispersion bo'yoq bilan bo'yoqlash kerak. Sanitar xonalarda devor yuzasiga sopol p-litka qoplash ko`zda tutilgan. Pol – yerto`la qavatda betondan, turar-joy xonalarida keramik plitka, laminat, keramogranit pol qoplama bajariladi.

Eshik – yerto`la va tashqi eshiklar metaldan, ichki eshiklar MDF va plastik profildan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan.

Tashqi pardoz ishlarida devorlar avvalo sement-qum qorishmasi bilan sifatli suvoq qilinib maxsus “Bazalt” issiqlik saqlovchi plitkalari bilan qoplanib, undan keyin, ustidan “Travertin” dekorativ qorishma bilan pardozlash hisobga olingan. Me’moriy elementlar “Tunukafon” dan metall karkasga dekorativ qoplash yo’li bilan bajariladi. Tashqi pardozlash ishlari bino tashqi ko’rinishini sement qorishmali “travertin” suvoq qilish, sokol vodoemultsiya bo’yog’i bilan pardozlash ko’zda tutilgan.

Oynalar-PVX rusumli plastikdan, eshiklar MDF va PVX rusumli urnatish kuzda tutilgan. Xonalar maydoni va tarkibi ShNK 2.08.01-05 “Turar-joy binolari” talablariga mos keladi. Undan tashqari ishchi loyixada: Yong’inga qarshi gidrantlar o’rnatish; Muxandislik tarmoqlarini qurish; Bolalar maydonchalari va boshqa xo’jalik hovli qurilmalarini qurish va obodonlashtirish ishlari ko’zda tutilgan.

Konstruktiv yechimlari: 2-dona 5 qavatli 40 xonadonli turar-joy binosining fazoviy bikrligi gorizontal yo’nalishda qavatlararo yopmalar bilan birgalikda, bo’ylama yo’nalishda devorlar bilan birgalikda ishlash hisobida bajarilgan.

Konstruktsiyalar tasnifi:

Asos va asos devori - B-15 rusumli quyma yaxlit temirbeton.

Sokol - B-15 rusumli quyma yaxlit temirbetondan

Devor - M75 rusumli, II toifali, M-50 rusumli qorishmadan, qalinligi T=380 mm li. temirbeton o’zak, sinch va ustunlar bilan kuchaytirilgan, oraliq devorlar, burchak kesishmalari SG-1 rusumli sim tur bilan kuchaytirilgan.

Ustunlar - Quyma yaxlit temirbeton , B20 rusumli beton qorishmadan

Yopmalar - Yig’ma temir-betondan, UTR 46.2-95 вып.1.seriya bo’yicha

Zinapoyalar - Quyma yaxlit temirbetondan

Tom yopma - Chordoqli, yog’och konstruktsiyali, polimer qoplamali 0.51 mm profnastildan.

Issiklik ximoyasi - Mineral plitadan,

Eshik va deraza - MDF va PVX rusumli plastikdan.

Pol - 2.244-1 v.4 seriya bo’yicha.

Parda devor - ½ g’ishtdan.

Tashki va ichki Pardozlash - Ishchi loyixaga asosan

Otmostka - Shag’al to’shamali quyma beton qorishmadan.

Zilzilaga qarshi choralar: Binolarning yuk ko’taruvchi konstruktsiyalari va tugunlari KMK 2.01.08-96 “Zilzilaviy xududlarda qurilish” ga asosan tanlangan.

Bino kuchlarni teng taqsimlash simmetriyasi buyicha tug’riturtburchak shaklida loyixalangan.

Qurilish konstruktsiyalarini zanglash, chirishga qarshi choralari: Bino qurilish konstruktsiyalari KMK 3.04.02-97 “Qurilish konstruktsiyalarini yemirilishga qarshi choralari” ga asosan loyihalangan. Asoslar va barcha yerosti qurilish konstruktsiyalari normal zichlik betondan bajarilgan. Asos yuzalari qaynok saqichli himoyalangan.

Yong’inga qarshi choralar:

Loyixa yong`in xavfsizligini xisobga olgan xolda, avtomatik yong’indan xabarlash tizimlari va YoXB yashiklari bilan jixozlash loyiha tayyorlangan.

Loyihaviy binoga o’t o’chiruvchi mashinalar mavjud ko’chadan kelishi rejalashtirilgan hamda binoga kirish chiqish yo’llari bosh rejada ko’rsatilgan.

Tashqi o’t o’chirish uchun loyixada, avtomatik yong’indan xabarlash tizimlari ko’zda tutilgan.

3..5. Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish: “2-dona 5 qavatli 40 turar-joy” binosi hududida loyihalanadigan avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 2,5–3 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan, Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan, Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 cm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan, Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilgan, nogironligi bo’lgan shaxslar yuqori qavatga ko’targich o’rnatilgan, ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan, “2-dona 5 qavatli 40 turar-joy binosi” Ishchi loyihasida “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-24 talablariga to’liq javob beradi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

“XUDUDGAZ ANDIJON” Paxtaobod tumani gaz ta’minoti bo’limining 2025-yil 21-avgustdagi № 210752151 -sonli texnik sharti.

Andijon viloyati “Andijon xududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman ETK Paxtaobod tumani bo‘limining 2025-yil 22-avgustdagi № 210680970 -sonli texnik sharti.

“Andijon viloyati suvta’minot” MCHJ Paxtaobod tumani filialining 2025-yil 21-avgustdagi № 22-sonli texnik sharti.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Andijon viloyati qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan.

Hududiy yong’inga qarshi nazorat xizmati bilan kelishilgan.

Hududiy sanitariya-epidemieologiya xizmati bilan kelishilgan.

Hududiy ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilishorgani bilan kelishilgan.

5. Loyiha- smeta hujjatlariga ekspertizaning e’tiroz va takliflari:

5.1. Loyihani ko’rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan dastlabki loyiha chizmalari va smeta hisob-kitoblari to’g’rilanib qayta to’ldiriladi va ekspertiza ko’rigiga taqdim etadi.

5.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

5.3. Ishchi loyixaga xavfsizlik, isitish va ventilyatsa, suv ta’minoti va kanalizatsiya qoshilishi lozim, QMQ 2.03.11-96 “Qurilish konstruksiyalarini koroziyadan ximaya qilish asosan talablariga asoslanib.

5.4. Buyurtmachi loyihaviy xujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

5.5. Fuqaroning xavsizligini tamirlash maqsadida, gaz oqimi mavjud bolgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, yopiq xonalarda gaz analizatorlarini o’rnatishni ta’minlash zarur.

5.6. Yong’inni o’chirish uchun yong’inga qarshi rezervuar xisobga olinib, hududda yong’inni o’chirish shiti o’rnatilish kerak va shu bilan birga xar bir binolar tom qismida yongin kuchayishini oldini olish maqsadida parapet devorlar urilishi shart.

5.7. Binolar loyihalarda avtomatik yong’in tizimi va odamlarni yong’in haqida ogohlantiruvchi tizimga qaratilishi lozim.Yong’in paytida evokuatsiya yolaklari va binodan chiqish joyi ko’rsatuvchi “CHiqish /Vixod” ko’rsatkichlari o’rnatiladi.Xonalarning eshiklarining ochilish evokuvatsiya, ya’ni chiqish tomomga ochilishi ko’zda tutilishi lozim.Bino ichkarisida o’t o’chiruvchi moslamalardan foydalanish ko’zda tutilsin.

5.8. Keyingi loyihalash jarayonida mijoz tashqi muhandislik tarmoqlari bo’lgan binolar uchun muhandislik uskunalari (NVK va tashqi yong’inga qarshi)bo’limini ishlab chiqishi kerek.

5.9. Eslatib o’tamiz, agar Andijon viloyati GUAS huzuridagi SHaharsozlik kengashi yig’ilishining xulosasi bo’lsa, bu xulosa xaqiqiydir.

5.10. Ishchi loyihada; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari.

-Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va iishootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv taminlanishi ko‘zda tutilgan.

-II-toifali energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **11 576 468 414** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

369 698 985 so'mga kamaytirilib, **11 206 769 429** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **9 148 695 473** so'm

Asbob-uskunalar: **857 348 660** so'm

QQS: **1 200 725 296** so'm

-Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.

-Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (PPJ) qoplash ko`zda tutilgan

6.1. loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning arxitektura va konstruksiya bo'limi, suv ta'minoti va oqava suv echimlari bo'limi, elektr, isitish va shamollatish bo'limi hamda smeta bo'limi yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha ekpertiza tashkiloti oz bo’yniga olmedi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2025yil 26-sentyabrdagi №215516539 - sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.6. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan quyidagi bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi:

6.7. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.8. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.9. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.

6.11. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23 noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.12. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.13. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston

Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.15. Tuzatishlar natijasiga ko’ra jami qiymati 12 % QQS bilan 11 576 468 414 so’m bo’lgan smeta xujjatlari qurilish materiallari va konstruktsiyalari narxini pasaytirish xisobiga 369 698 985 so’mga maqbullashtirildi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyixa: Andijon viloyati, Paxtaobod tumani Qo‘qonqishloq MFY, 12-uy hududida "PAXTAOBOD 114-QURILISH" M.CH.J tomonidan “O’ziga tegishli joyga qo‘shimcha 2 dona 5 qavatli 1 podezli 2 va 3 xonali xar biri 20 xonodonli ko’p qavatli turar joy binosi qurilishi (Yong'in xavfsizligi va zilzilabardoshligi qismi bo'yicha)taqdim etilgan quyidagi texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Umumiy yer maydoni	- 7804.0 m2;
Qurilish maydoni	- 294.6 m2;
Yerto’la maydoni	- 243,1 m2;
Umumiy maydon	- 1997,4 м2;
Qurilish xajmi	- 5292.36м3;
Me’yoriy mehnat hajmi smeta bo’yicha	- 4297.24 kishi/kun
Ob’ektning joriy narxdagi taklifiy (boshlang’ich) qiymati 12% QQS bilan	- 11 206 769 429 so’m **;**

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Ekspertizaga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!.

Bosh mutaxassis: R.Adahamov S.Turdibekov

A.Usmonov Abdullayev.SH